

BOSHLANG'ICH SINFLARDA "...TA KAM, ...TA ORTIQ" MAVZULARINI O'RGATISH METODIKASI.

Gulxanova Fotima Akramjon qizi
Samarqand Davlat Universiteti talabasi
gulxanovafotima@gmail.com
+998990630836

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga qo'shish va ayirishga oid asosiy bilim va ko'nikmalar berib o'tilgan.

Kalit so'z: "...ta ortiq, ...ta kam", qo'shish, ayirish.

Аннотация: Эта статья дает учащимся начальных классов базовые знания и навыки сложения и вычитания.

Ключевые слова: «... больше, ... меньше», сложение, вычитание.

Boshlang'ich sinflarda "...ta kam, ...ta ortiq" mavzulari ostida o'quvchilarga boshlang'ich masalalarni o'rgatish uchun o'quvchilarda avvalo qo'shish va ayirish ko'nikmalarining yaxshi o'zlashtirib olingani muhim ahamiyatga egadir. Chunki ...ta kam deyilganda biror ma'lum miqdordan qancha kam bo'lsa shu miqdorni ayirish kerakligini, ...ta ortiq deyilganda esa biror miqdorga qancha ortiq bo'lsa shu miqdorni qo'shish kerakligi tushuniladi. Birinchi ikkinchi sinflarda mana shu mavzu ostida quyidagicha sodda masalalar beriladi.

1-masala:

1-qalamdonda 16ta qalamlar bor, 2-qalamdonda esa 1-qalamdondagidan 7 ta kam qalam bor. 2-qalamdonda nechta qalam bor-?

1) Masala qanday tipdagi masala?

- Oddiy tipdagi

2) Masala nima haqida?

- Qalamdondagi qalamlar haqida

3) Masalada nima ma'lum?

- 1-qalamdondagi qalamlar soni

4) Masalada nima noma'lum?

- 2-qalamdondagi qalamlar soni

5) Masalada nima topilishi kerak?

- 2-qalamdondagi qamlarning sonini

Qisqa shart:

1-qalamdonda-16 ta qalam

2-qalamdonda-7 ta kam qalam (1-qalamdondagidan)

2-qalamdonda-?ta qalam bor

1. 2-qalamdonda nechta qalam borligini topishimiz uchun 1-qalamdondagi ma'lum qalamlar sonidan 2-qalamdondagi qalamlar nechta kam bo'lsa shuni ayiramiz.

Yechish: $16-7=9$

Javob: 2-qalamdonda 9ta qalam bor.

2-masala:

Bor edi Muborakda – 23ta atirgul, Zuhrada Muboraknikidan -12ta ortiq chinnigul bor. Muborakda nechta chinnigul bor-?

1)Masala qanday tipdagi masala?

-oddiy tipdagi

2)Masala nima haqida?

-Zuhra va Muborakdagi gullar haqida

3)Masalada nima ma'lum?

-Muborakning qo'lidagi gullarning soni

4)Masalada nima noma'lum?

-Zuhradagi gullar soni

5)Masalada nima topilishi kerak?

Muborakdagi gullar sonini

Qisqa shart:

Muborakda-23 ta atirgul

Zuhrada-?ta 12ta ortiq chinnigul (Muboraknikidan)

Zuhrada- ?ta chinnigul gul bor

1.Zuhradagi chinnigullar sonini topishimiz uchun Muborakdagi atirgullar soniga Zuhradagi chinnigullar nechta ortiq bo'lsa shuni qo'shamiz.

Yechish: $23+12=35$

Javob: Zuhradagi chinnigullar soni 35

3-masala:

Sinfda 12 ta o'g'il bola bor, qizlar esa 6 ta ortiq.Sinfda jami nechta o'quvchi bor-?

1) Masala qanday tipdagi masala?

-murakkab tipdagi

2) Masala nima haqida?

- sinfdagi o'quvchilar haqida

3)Masalada nima ma'lum?

- sinfdagi o'g'il bolalar soni

4)Masalada nima noma'lum?

--sinfdagi qizlar soni va jami o'quvchilar soni

5) Masalada nima topilishi kerak?

-Sinfdagi jami o'quvchilar sonini

Qisqa shart:

O'g'il bolalar-12ta

Qizlar-?ta 6ta ortiq (o'g'il bolalardan)

Jami o'quvchilar -? Ta

1.Dastlab sinfdagi qizlar sonini topish uchun ma'lum o'g'il bolalar soniga qizlar nechta ortiq bo'lsa shuni qo'shamiz.

2.Endi sinfdagi jami o'quvchilari sonini topish uchun o'g'il bolalar soniga chiqqan qizlar sonini qo'shamiz.

Yechish: 1) $12+6=18$

2) $12+18=30$

Javob:Sinfdagi jami o'quvchilar soni 30 ta.